Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar" dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikasi integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи	
Task mapping and job scheduling implications of fdi inflows and governance quality metrics	1081
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi	



Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	



UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH



Hakimov Faxritdin Abdusattorovich

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti assistenti

faxritdinhakimov72@gmail.com

ORCID: 0000-0001-6160-3049

Annotatsiya: Mazkur maqolada uzoq muddatli aktivlarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida hisobga olish bilan bog'liq nazariy yondashuvlar hamda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, aktivlarni tan olish, dastlabki va keyingi baholash, shuningdek, ularni hisobga olish tamoyillarining mohiyati chuqur o'rganiladi. Tadqiqotda xalqaro standartlar amaliyotini milliy hisob tizimi bilan solishtirish orqali hisobni takomillashtirish yo'nalishlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: uzoq muddatli aktivlar, xalqaro standartlar, buxgalteriya hisobi, baholash usullari, tan olish mezonlari.

Abstract: This article explores theoretical approaches to accounting for long-term assets in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS), with a focus on the views of both foreign and domestic scholars. It examines the recognition, initial and subsequent measurement, and accounting principles of long-term assets. The study also highlights potential directions for improving asset accounting by comparing international practices with national accounting systems.

Key words: long-term assets, international standards, accounting, valuation methods, recognition criteria.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические подходы к учету долгосрочных активов в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности, а также анализируются научные взгляды зарубежных и отечественных исследователей. Особое внимание уделено признанию, первоначальной и последующей оценке активов, а также основным принципам их учета. В исследовании предлагаются пути совершенствования учета долгосрочных активов через сопоставление международной и национальной практики.

Ключевые слова: долгосрочные активы, международные стандарты, бухгалтерский учет, методы оценки, критерии признания.

KIRISH

Bozor munosabatlariga asoslangan yangi iqtisodiy tizimga o'tish jarayonida O'zbekistonda mulkiy munosabatlar va ularni tartibga soluvchi hisob yuritish tizimining tubdan yangilanishi zarurati yuzaga keldi. Ayniqsa, bugungi iqtisodiy taraqqiyot modeli ilg'or xorijiy tajribalarga tayanishni, moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlaydigan xalqaro standartlarga mos hisobot tizimini shakllantirishni talab qilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'RBQ-404-sonli Qonuniga kiritilgan o'zgartishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunning yangi tahririga binoan, 10-modda orqali buxgalteriya hisobi subyektlariga moliyaviy hisoboting xalqaro standartlarini (MHXS) qo'llash huquqi berildi [1].

Keyingi bosqichda bu islohotlar yanada chuqurlashtirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli qaroriga asosan, 2021-yil 1-yanvardan boshlab aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari va yirik soliq to'lovchi subyektlar moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida yuritishi belgilandi [2].



1-son MHXSda “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari – bu Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan standartlar va sharhlardir”, deb ta’rif berilgan [3]. Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi – turli mamlakatlar buxgalteriya amaliyotida yuzaga keladigan tafovutlarni kamaytirish, moliyaviy ma’lumotlarning solishtiriluvchanligini ta’minlash hamda umumiy standartlashtirish orqali hisobotlar sifatini oshirishdan iborat. Xususan, professor A.N. Turaev bu borada “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari – buxgalteriya amaliyotidagi xilma-xillikni kamaytirish, tahlil imkoniyatlarini kengaytirish va ishonchlilik darajasini oshirishga xizmat qiladi”, deya ta’kidlagan [4].

Shu sababli, uzoq muddatli aktivlarning xalqaro standartlarga muvofiq hisobini takomillashtirish dolzarb masala bo‘lib, bu nafaqat hisob yuritish tizimini modernizatsiyalashga, balki iqtisodiy islohotlarning huquqiy va metodologik asoslarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida uzoq muddatli aktivlarni tan olish, baholash va hisobga olishga doir tamoyillar yuzasidan nafaqat xorijiy, balki mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa, “daromad va xarajatlar o‘rtasidagi muvofiqlik tamoyili” – ya’ni daromad olish uchun amalga oshirilgan xarajatlar aynan shu daromadlar e’lon qilingan hisobot davrida tan olinishi kerakligi ko‘plab iqtisodiy adabiyotlarda ta’kidlanadi.

Professor Ya.V. Sokolov ushbu tamoyilni qo‘llash zaruratini alohida urg‘ulagan. Unga ko‘ra, “daromad keltiruvchi xarajatlar qaysi davr daromadiga tegishli bo‘lsa, aynan o‘sha davrda aks ettirilishi lozim” [5]. Professor M.I. Kuter esa bu tamoyilni qo‘llash orqali davr xarajatlarini ishlab chiqarish tannarxiga taqqoslab baholash mumkinligini ta’kidlaydi [6].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan professor I.N. Ismanov fikricha, aktivlarni to‘g‘ri tasniflash orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini tahlil qilish va ularning holatini aniq baholash imkoniyati ortadi [7]. Shuningdek, S.N. Tashnazarovning izohiga ko‘ra, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) tarkibida “III. Aktivlar, majburiyatlar va investitsiyalarga oid standartlar” degan bo‘lim mavjud bo‘lib, bu guruhga 9 ta asosiy standart kiradi [8].

Xalqaro me’yorlarga muvofiq, daromad keltirmaydigan uzoq muddatli aktivlarga yo‘naltirilgan sarf-xarajatlar bevosita zarar sifatida tan olinadi. Bu tamoyil xalqaro amaliyotda investitsion xavflarni boshqarish va aktivlar samaradorligini aniqlashda asosiy vositalardan biri sifatida qo‘llaniladi.

Shuningdek, zamonaviy yondashuvga ko‘ra, foyda – bu tadbirkorning kapitaldan foydalanish orqali olgan sof daromadi bo‘lib, u tijorat muvaffaqiyatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. Foyda kategoriyasi bevosita ishlab chiqarishning muhim omili bo‘lgan kapital bilan bog‘liqdir [9].

Xulosa shuki, buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish bo‘yicha konseptual va metodologik asoslarni belgilab beradi. Ular orqali aktivlarning moliyaviy hisobdagi aks ettirilishi, ularning bahosi, amortizatsiya hisoboti va tahliliy imkoniyatlari aniq mezonlar asosida yuritilishi ta’minlanadi [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mazkur ilmiy maqolada nazariy va amaliy jihatdan asoslangan tadqiqot metodlariga keng e’tibor qaratildi. Xususan, ilmiy asoslangan xulosalarga kelish jarayonida induktiv va deduktiv tahlil yondashuvlari qo‘llanildi. Uzoq muddatli aktivlarning xalqaro standartlarga muvofiq hisobga olinishi bilan bog‘liq jarayonlar chuqur monografik kuzatuv asosida o‘rganildi. Bundan tashqari, omillarga asoslangan tahlil uslubi orqali mavjud yondashuvlar o‘zaro solishtirildi va ularning samaradorlik darajasi aniqlab berildi.

Tadqiqotda analitik yondashuvlar doirasida sintez, muqobil taqqoslash, tushunchalararo bog‘liqlikni aniqlash usullari ham qo‘llanildi. Bularning barchasi uzoq muddatli aktivlar hisobi bo‘yicha mavjud nazariy qarashlarni amaliy jihatdan chuqurlashtirishga xizmat qildi. Shuningdek, xalqaro va milliy buxgalteriya hisobi tizimlaridagi o‘ziga xosliklarni qiyosiy tahlil qilish orqali maqolada taklif etilgan ilmiy asosli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shuni alohida ta’kidlash joizki, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarida belgilangan asosiy tamoyillar va konseptual yondashuvlarning katta qismi O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ham qabul qilingan buxgalteriya hisobining konseptual tizimiga mos keladi. Bu esa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan moliyaviy hisobot tizimining xalqaro standartlarga integratsiyalashuv darajasini ko‘rsatadi.

Xususan, xalqaro buxgalteriya hisobi standartlarida quyidagi asosiy qoidalar muhim tamoyil sifatida belgilangan(1-rasm):



1-rasm. Xalqaro buxgalteriya hisobi andozalarining asosiy qoidalari.

O'zbekiston Respublikasi milliy buxgalteriya hisobi standartlarida buxgalteriya hisobining to'rtta asosiy tamoyili shakllantirilgan. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobida mavjud bo'lgan ko'plab tamoyillar orasidan aynan uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishga xizmat qiladigan, hisobot yuritishning usul va uslubiylarini belgilab beruvchi tamoyillarni ajratib ko'rsatish muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolada uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishga doir asosiy tamoyillar yoritilgan bo'lib, ular amaliyotda qanday tatbiq etilishi mumkinligi tahlil qilingan(2-rasm).



2-rasm. Moliyaviy hisobot tarkibidagi axborotlarning sifat tasniflari.

Bizning fikrimizcha, yuqorida bayon etilgan ilmiy qarashlar uzoq muddatli aktivlar tarkibini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablariga muvofiqlashtirish, ularni uyg'unlashtirish va amaliyotda tatbiq etishga xizmat qiladi. Uzoq muddatli aktivlar xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida ishtirok etuvchi asosiy iqtisodiy resurslardan biri hisoblanadi va ularning samarali boshqaruvi moliyaviy barqarorlikning muhim omilidir.

Shu bilan birga, yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida bu iqtisodiy kategoriya hali yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan bo'lib, mavjud tasnif va yondashuvlar amaliyotda to'laqonli ishlatilmayapti. Shu sababli, uzoq muddatli aktivlarning asosiy turlarini ajratish va ularni har tomonlama iqtisodiy, huquqiy va funksional mezonlar asosida tavsiflab berish dolzarb ilmiy vazifadir.

Shuni ta'kidlash joizki, mazkur tadqiqotlar uzoq muddatli aktivlarga doir ayrim nazariy masalalarni aniq xo'jalik yurituvchi subyektlar misolida o'rganishga va ularning amaliy faoliyatiga tatbiq etishga yo'naltirilgan. Ayniqsa, o'z faoliyatini tugatayotgan yoki tugatish bosqichida turgan korxonalar uchun uzoq muddatli aktivlarni baholashda realizatsion qiymat usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunday hollarda quyidagi vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin(1-jadval):

**1-jadval. Uzoq muddatli aktivlarni baholashda realizatsion qiymat usuli qo'llaniladigan holatlar tahlili.**

T/r	Uzoq muddatli aktivlarni baholashda realizatsion qiymat usulini qo'llanishi
1	.Yuridik shaxs aktivlarining realizatsion qiymati kreditorlarning qarzini qoplash uchun yetarli
2	Yuridik shaxs aktivlarining realizatsion qiymati kreditorlar talabini qondira olmaydi va ular o'zlariga tegishi .mumkin bo'lgan ulushining bir qismini oladi
3	.Yuridik shaxs aktivlari realizatsion qiymati qarzlardan ancha ko'p va u qarzlarni to'lagigicha yopish uchun yetarli

Shunday qilib, korxona faoliyatining uzluksizligi tamoyilini uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobi amaliyotiga tatbiq etgan holda, uni quyidagicha ifodalash mumkin: faoliyatini davom ettirayotgan korxonaning uzoq muddatli aktivlari balans qiymatida – ya'ni dastlabki, joriy tiklanish bahosi, bozor bahosi yoki qoldiq qiymat asosida baholanadi. Biroq, agar korxona o'z faoliyatini tugatish bosqichiga kirs va oraliq tugatish balans tuzilayotgan bo'lsa, uzoq muddatli aktivlar realizatsion (sotish) qiymat asosida baholanadi.

Moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibining konseptual asoslaridan biri sifatida hisoblash tamoyili e'tirof etiladi. Ushbu tamoyil xo'jalik faoliyatining muayyan davrini tavsiflab beradi. Ya'ni, xo'jalik operatsiyalari hisobda ularning real harakatlari sodir bo'lgan vaqtda emas, balki ular taalluqli bo'lgan hisobot davri kontekstida tan olinadi. Boshqacha aytganda, hisoblash tamoyili – buxgalteriya hisobida sodir bo'lgan har bir iqtisodiy voqeani aynan tegishli hisobot davrida aks ettirish zaruriyatini ifodalaydi.

Aynan shu sababli, korxona faoliyatini yakunlayotgan vaqtda aktivlarni baholashda ularni bozorga chiqarib sotishdan olinishi mumkin bo'lgan real qiymatlar asosida daromadlarni aniqlash imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa moliyaviy natijalarning aniqroq ko'rsatkichlarda ifodalanishiga xizmat qiladi.

Moliyaviy hisobning xalqaro standartlarida esa hisoblash tamoyiliga kengroq talqin berilgan bo'lib, ushbu tamoyil quyidagi to'rtta asosiy tarkibiy qism orqali ifodalanadi(2-jadval):

2-jadval. Moliyaviy hisobning xalqaro standartlarida buxgalteriya hisobi tamoyillarining tarkibiy qismlari.

T/r	Moliyaviy hisobning xalqaro standartlarida buxgalteriya hisobi tamoyillarining tarkibiy qismlari
1	Operatsiya va hodisalar pul va uning ekvivalentlarining kelib tushishiga qarab emas, balki ular haqiqatda amal- ga oshishiga qarab tan olinadi
2	Operatsiya va hodisalar qaysi davrda amalga oshirilganligiga qarab o'sha davrning moliyaviy hisobotlarida ;ko'rsatiladi va hisob registrlarida qayd qilinadi
3	Xarajatlar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda bevosita ko'rilgan zararlar va ishlab topilgan aniq daromadlar ;solishtirilganda tan olinadi
4	Taqqoslash konsepsiyasining qo'llanishi buxgalteriya balansida aktiv va majburiyatlarni belgilamaydigan .moddalar bo'lishiga yo'l qo'ymaydi

Bizning fikrimizcha, hisoblash tamoyilini quyidagi uchta asosiy tarkibiy qismga ajratish mumkin: xarajatlarni aniqlash tamoyili, daromadlarning xarajatlarga muvofiqligi tamoyili va qayd qilish tamoyili. Xarajatlarni aniqlash tamoyili shuni anglatadiki, xarid qilingan aktivlar uchun to'langan pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari o'z-o'zidan xarajat sifatida tan olinmaydi. Aksincha, bu mablag'larni to'lash majburiyatining vujudga kelishi xarajat deb hisoblanadi.

Daromadlarni qayd qilish tamoyiliga ko'ra, daromadlar qaysi hisobot davrida yuzaga kelgan bo'lsa, ular uchun pul mablag'lari amalda tushgan-tushmaganidan qat'i nazar, aynan o'sha davrda e'tirof etilishi lozim. Amaldagi buxgalteriya hisob siyosatida esa daromadni tan olish mezon sifatida mulk huquqining sotuvchidan xaridorga o'tgan vaqti qabul qilingan.

Uzoq muddatli aktivlarga doir operatsiyalarda, xususan, ularni vaqtincha foydalanishga topshirish orqali ham daromad olish mumkin. Daromadlarning xarajatlarga muvofiqlik tamoyili esa shuni ko'zda tutadiki, daromad olish uchun amalga oshirilgan xarajatlar aynan shu daromad aks ettirilgan davrda hisobga olinadi.

Mazkur tamoyilning amaliyotda qo'llanishi murakkab bo'lsa-da, xalqaro va mahalliy iqtisodchilar bu tamoyil zarurligini ta'kidlamogda. Professor Ya.V. Sokolov ushbu tamoyilni "daromad keltiruvchi xarajatlar aynan shu daromad tegishli bo'lgan davrga taalluqli bo'ladi" deb izohlaydi [5]. Professor M.I. Kuter fikricha, bu tamoyil orqali davr xarajatlarini ishlab chiqarish tannarxiga taqqoslash imkoniyati vujudga keladi [6].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan professor I.N. Ismanov ta'kidlaganidek, aktivlarni to'g'ri tasniflash orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini chuqurroq tahlil qilish va baholash mumkin bo'ladi [7]. Amaliyotda muvofiqlik tamoyilini to'liq joriy etish qiyin bo'lsa-da, xorijiy tajribada buxgalteriya hisobining maxsus usullaridan foydalaniladi. Bular "konstatasiyalash" va "transformatsiyalash" usullari bo'lib, agar xarajatlar va daromadlar bir hisob davriga tegishli bo'lsa, konstatasiya, ikki yoki undan ortiq davrga taalluqli bo'lsa, transformatsiya usuli qo'llaniladi.



Xalqaro standartlar doirasida uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishda “ehtiyotkorlik tamoyili” alohida e’tibor talab etadi. Bu tamoyil O’zbekistondagi amaliyotga mos kelishi mumkinmi, degan savol tug’iladi. Uzoq muddatli aktivlarning ba’zi turlarida ikki xil ehtiyotkorlik konsepsiyasi mavjud:

Dinamik buxgalteriya hisobiga ko’ra, faqat sotish yoki boshqa sabablarga ko’ra foydalanilmaydigan aktivlar bo’yicha real bahoni aniqlash lozim;

Statik buxgalteriya hisobiga ko’ra esa hali sotilmagan aktivlarning potensial zarari inobatga olinadi.

Statik yondashuv amaliy buxgalteriya hisobotlarida keng qo’llanilmasa-da, ehtiyotkorlik tamoyili uni tatbiq etishga imkon yaratadi. Iqtisodchi olim S.N. Tashnazarovning fikricha, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari doirasida “III. Aktivlar, majburiyatlar va investitsiyalar” guruhiga 9 ta standart kiritilgan [8].

Buxgalteriya hisob qoidalariga ko’ra, egalik huquqiga asoslangan holda, obyekt foyda keltirsa-da yoki keltirmasa-da, u uzoq muddatli aktiv sifatida tan olinadi. Xalqaro andozalarda esa foyda keltirmaydigan aktivlarga qilinadigan xarajatlar moliyaviy zarar sifatida baholanadi. Foyda esa, mohiyatan, tadbirkorning daromad shakli bo’lib, kapitaldan foydalanish natijasida yuzaga keladi. Bu holat foyda tushunchasining ishlab chiqarishdagi asosiy omil – kapital bilan uzviy bog’liq ekanligini anglatadi [9].

Shunday qilib, ehtiyotkorlik tamoyilining qo’llanilishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan fiskal siyosat bilan muvofiqlashtirilgan holda olib borilishi lozim. Uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobida davriylik, moliyalashtirish, joriy va kelajak davr xarajatlarini alohida hisobga olish kabi metodologik yondashuvlar bilan birga olib boriladi.

Davriylik tamoyiliga ko’ra, aktivlarni sotib olishdagi yirik xarajatlar bir martada emas, balki turli hisobot davrlariga taqsimlanadi. Shu sababli, aktivlarning dastlabki bahosi aniqlanib, ularni ishlatish davri belgilanadi va har bir yilga to’g’ri keluvchi qismi aniqlanadi.

Shuningdek, joriy, kelgusidagi va kapital xarajatlarni alohida hisobga olish usuli orqali korxonaning uzoq muddatli aktivlar sotib olish bilan bog’liq xarajatlari buxgalteriyada aniq aks ettiriladi. Ushbu xarajatlar korxona tomonidan pul to’lash, debitorlik qarzlari yoki boshqa aktivlar bilan almashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu xarajatlar aktivlarning qiymatini oshiradi va ularning qismi joriy, qismi esa kelajak davrlarga tegishli bo’ladi. Shu sababli, xarajatlarni joriy, kelajak va kapital xarajatlarga ajratish juda muhim.

Xulosa shuki, “buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishning konseptual asosini belgilaydi” [10]. Shuning uchun har bir xo’jalik yurituvchi subyekt o’z hisob siyosatini shakllantirishda ushbu tamoyillarga asoslanishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishning konseptual asosini belgilaydi. Shu boisdan, xo’jalik yurituvchi subyektlarda hisob siyosatini ishlab chiqish va unga qat’iy amal qilishda ushbu tamoyillarni to’liq inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzoq muddatli aktivlarni tan olishga oid tamoyillardan kelib chiqib, quyidagi mezonlar asosida yondashish lozim:

- Aktiv bir yildan ortiq muddatda foydalanishga mo’ljallangan bo’lishi;
- Aktiv ustidan subyektning nazorati mavjud bo’lishi;
- Kelgusida ushbu aktiv orqali iqtisodiy foyda olinishi kutilishi kerak.

Ikkinchidan, aktivlarning uzoq muddatli yoki joriy aktivlar sifatida tasniflanishi ularning xizmat muddati asosida belgilanadi. Shu bois, aktivning iqtisodiy umri aniqlanishi va ularning buxgalteriya hisobida moliyaviy holat haqidagi hisobotda to’liq va aniq aks ettirilishi zarur.

Uchinchidan, uzoq muddatli aktivlar tarkibi quyidagi moddalarga asoslanib turkumlanishi maqsadga muvofiq: gudvillus, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, sho’ba korxonalardagi moliyaviy investitsiyalar, assotsiatsiyalashgan korxonalardagi investitsiyalar, boshqa uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hamda uzoq muddatli debitorlik qarzlari.

Uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishda quyidagi xalqaro va milliy buxgalteriya hisobi standartlariga tayanish lozim: 1-BHXS, 8-BHXS, 16-BHXS, 7-BHXS, 38-BHXS, 40-BHXS, 1-MHXS, 3-MHXS, 5-MHXS, 9-MHXS, 10-MHXS, 15-MHXS.

Shuningdek, uzoq muddatli aktivlar fundamental va sifat tavsiflariga ko’ra quyidagi mezonlar asosida turkumlanishi zarur: ishonchlilik, ahamiyatlilik, haqqoniy taqdim etish (ya’ni to’liqlik, neytrallik, xatolardan xoli bo’lish), taqqoslanuvchanlik, tekshiruvchanlik, o’z vaqtidalik va tushunarlilik.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, uzoq muddatli aktivlarni tan olishda xalqaro standartlarning mezonlariga asoslanish zarur bo’lib, bu esa moliyaviy hisobotlarning asosiy prinsiplaridan biri hisoblangan uzluksizlik tamoyilini ta’minlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, yangi tahriri (2016–yil 13–apreldagi O'RQ–404–son).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–yil 24–fevraldagi PQ–4611–son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
3. Международные стандарты финансовой отчетности: Издание на русском языке. – М.: "АСКЕРИ-АССА", 2016.
4. To'raev A.N., Eshonqulov A.A. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish va taqdim etish tartibi //Arxiv ilmiy tadqiqotlar. – 2022. – T. 2. – № 1.
5. Norbekov D., To'rayev A., Raxmonov Sh. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2018. – 350 b.
6. Sokolov Ya.V. Osnovy teorii bukhgalterskogo ucheta. – M.: Finansy i statistika, 2002. – S. 48.
7. Kuter M.I. Teoriya i printsipy bukhgalterskogo ucheta. – 2000.
8. Ismanov I.N. Aktivlar tushunchasining iqtisodiy mazmuni va ularni hisobga olishning ayrim munozarali jihatlari // Ekonomika va moliya (O'zbekiston). – 2016. – № 2. – B. 39–45.
9. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va ularga o'tish zaruriyati //Ekonomika va moliya (O'zbekiston). – 2016. – № 7. – B. 48–54.
10. Khakimov F.A., Turanov M.S. The Economic Essence of Profit and the Initial Theoretical Foundations of its Formation //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – T. 6. – B. 95–97.
11. Abdusattorovich K.F. Principles of Recognition, Assessment and Accounting of Long-Term Assets in International Account Templates //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – № 11. – B. 1133–1138.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
